

**Do'stlik Rishtalari**

Termiz davlat universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish (Fransuz tili)

1-bosqich talabasi

**Rajabova Shahnozabonu Matnazar qizi**

Do'stlik- ijtimoiy-axloqiy va psixologik tushuncha. O'zaro hurmat, yoqtirish, manfaatlarning umumiyliigi, yaqinlik, bir-birini tushunishga asoslangan kishilar o'rtasidagi munosabat shaklini ifodalaydi. Kishilarning muloqat shakli sifatidagi do'stlik qonqardoshlik, o'rtoqlik, birodarlik tushunchalariga yaqin, lekin psixologik nuqtai nazaridan esa ulardan o'zining alohidaligi, tanlash xususiyati, his-tuyg'u bilan farq qiladi. Axloqiy psixologik hodisa va shaxsiy xislat sifatida do'stlik odamning yoshi, shaxsning shakllanishi bilan o'zgarib boradi. Ijtimoiy axloqiy muhit kishilarning turmush tarzi do'stlikning mazmun-mohiyatini belgilaydi. O'zaro manfaat," tabiiy yoqtirish,, hissi baxtga erishishga ko'maklashish va boshqalar do'stlikning asosi sifatida qaralgan. Haqiqiy, mustahkam do'stlik yuksak, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsad va ideallar mushtarakligini anglash asosida shakllanadi.

Do'stlik millat va xalqlar o'rtasidagi ijobiy aloqalarda ham o'z ifodasini topadi. Hozirgi davrda ko'p millatli O'zbekistonning rivojlanishi uchun xalqlar o'rtasidagi do'stlik nihoyatda muhim. Xalqlar, millat va elatlar o'rtasidagi do'stlik O'zbekistondagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biridir.

DO'ST- Bir soz bilan aytganda ota onangdan keyin siringni ishonib ayta oluvchi yagona inson. Bilasizmi haqiqiy dost kim boladi Har doim sizni qollab quvvatlovchi, ogir kunizda yaxshi kunizda yonizda turib dalda berguvchi birovlarni yonida sizni sotib ketmiydigan inson sizni haqiqiy dostiz boladi.Haqiqiy dostning dost ekanligi boshinga kulfat kelganida, eng ogir kunda bilinadi.sendagi ustun jihatdan oz manfaati yolida foydalanish bu dostlik emas, shunchaki hamkorlikdir. Do'stlik insonga ishonch, sevgi, samimiyat, sadoqatdan tashqari, sotqinlikni, manfaat va unitilish nimaligini orgatadi. Bu dunyoda eng qimmatbaho narsa bu chin dost, sadoqatli, va ishonchli dost toppish bolsa kerak. Do'st 4 harfdan iborat, lekin osha tortta harf insonlarning hayoti davomida ishlatadigan va kerak boladigan sozdir. Ona qornida mojizaviy shaklda katta boladigan bola singari dost ham insonning bir parchasi, hatto eng befarq insonlarning ham yuragida dost uchun alohida joy

boladi. Odamzod tirik ekan uni hayotida uni tushunadigan, u bilan bir yelkama yelka turib kurashadigan va asosiysi haqiqatdan ham ishona oladigan bir dostga ehtiyoji boladi. Albatta har qanday munosabatlarda bolgani singari ba'zi do'stlardan ham kuyib qolish mumkin. Inson bor joyda albatta yolgonlar, xiyonatlar boladi. Do'st tanlashda hato qilmaslik uchun eng avvalo uni sinab korish kerak, hammaniyam dost ekan deb siringni aytib ketaverish kerak emas. Bu dunyoda avvalam bor haqiqiy dost bu ONA, onanga ishonganing kabi ishonaoladigan insoning bu sening haqiqiy dostingdir.

Ulg'ayganing sari bu hayotni onqir chonqirl yollaridan asta otib, hayot sinovlarida qoqilib, sundikib ulgayar ekansan va hayot senga shu tarzda dars bolar ekan, shu tarzda kim senga dost u kim dushmanligini bilib olar ekansan. Hayot borki insonlar bor, insonlar borki raqobat bor, raqobat bor joyda esa har doim xiyonatlar boladi, hiyonatni biz doim eng yaqin insonlarimizdan olamiz, yaqin insonlarimiz esa bu bizning dostlarimizdir. Bizda bir do'st vafosiz chiqsa, vafo tarixda qoldi, vafo yo'q deymiz. Aslida esa vafosiz insonlarni bu qilgan ishiga xafa bo'lmaslik kerak, muammo deb bilmaslik, shunchaki unitish kerak. Yana do'stning eskisi ma'qul degan gap ham bor. Maktab, universitetdagi davrlarda eng yaxshi do'stlik munosabatlari o'rnatiladi. Tan olish kerakki, yosh ulg'aygani sari insonni do'stlarning yangisini topishi qiyin bo'ladi. Katta yoshda orttirilgan do'stlar yoshlikdagichalik qadirli bolmaydi. O'rtoq, oshna hamda tanishlaringiz ko'p bo'lishi mumkin ammo ularning har birining yaqinlik darajasi turli va bu yillar davomidagi sinalishlardan keyin ma'lum bo'ladi. Hazrat Ali (r.a) ning mashhur so'zlari bor:., siringni do'stinga aytma, u o'z do'stiga aytadi". Sir berishingizga loyiq bo'lgan do'st sizning tabassumingiz ortidagi qayg'uni, g'azabingiz ortidagi muhabbatni, sukunatingiz sababini siz kabi bilsin. Do'st sirini dushmandan pinhon tut! Sizning qayguyizni siz kabi xis qilmagan do'st bu sizning do'stingiz emasdir, sizning quvonchingizga sherik bo'lmagan birodaringiz sizning yaqiningiz emasdir unutmang! Haqiqiy do'st xursand kuningizda chaqirsangiz keladi, xafa bo'lsangiz ozi bilib keladi. Do'st tutmoqchi bo'lsangiz uni g'azabi chiqqan paytda poylang. Agar g'azabi chiqqan paytda Fosiqlik, johillik uyatsiz gaplarni, qiliqlarni qiladigan bo'lsa u bilan do'st tutunmang, chunki g'azab chiqmagan paytda hamma ham zor bo'lgan g'azabi chiqmagan paytda kulib otirgan, Insonni asl basharasini g'azabi kelib, achchig'i kelib turgan paytda bilasan. Inson g'azabi kelib turgan paytda, achchig'I kelib turgan paytda, johillik, fosiqlik qilmadimi, so'kinmadimi yomon gaplarni gapirmadimi, yomon qiliqlarni qilmadimi ana o'shani dost tuting haqiqiy mo'min dost osha bo'ladi, chunki inson ozida yoq

narsalarni qilolmaydi achchig'I kelsa ham. Meni do'stlarim ko'p, lekin ular turlicha, haqiqiyarlari va soxtalari yomon kunimda turadiganlari va qochadiganlari, xatolarimni va kamchiligimni yuzimga aytadiganlari va g'iybat qiladiganlari, men uchun har qanday vaziyatda jonlari omon bo'lsin! Lekin bir narani aytaman men ularga nisbatan qandaydir bir gina saqlab yurmayman balki ular o'zlari uchun to'g'ri qilishayotgandir, balki men xato gapirayotgandirman, bu muhim emas, muhimi do'stlarim bor va o'lganimdan song tobutimning bir chekkasiga qo'llari tegsa bas. Eng yaxshi do'st, do'stini duoda eslaydigan do'st. Hayotda hamma narsani nixoyasi bor, Do'stlik, sevgi, g'am-tashvish va umurning ham, Hayot huddi ariqda oqib ketadigan suvga o'xshaydi bir pastda ulg'ayib qolasan va hayot degan tushuncha nima ekanini asta sekin anglaysan, shu vaqt mobaynida sening yoningda haqiqiy do'sting bo'lishi bu omadingdir. Do'st tanlashda adashmang eng yaxshi do'st bu ALLOHNI eslatib turguvchi do'stdir! Do'st bo'lsa shunday bo'lsin, siz jahanamga kirsangizu U jannatga kirsa siz bo'lmasangiz unga jannat ham tatimasa mana shu haqiqiy dostlik. Hamma sizni tashlab ketganida, hamma ishini tashlab sizga kelganning ismi dostdir. Chiroyli gulni, mazmunli hayotni, sadoqatli do'stini hamma ham hoxlaydi muhimi gulni tikoni bilan, hayotni tashvishlari bilan, do'stini barcha kamchiliklari bilan seva olishdir. Albatta do'st uchun qurbon bo'lish qiyin emas, lekin qurbon bo'lishga arziydigan do'st toppish qiyin. Haqiqiy do'st toppish qiyin albatta, haqiqiy dost toppish uchun avvalo sir saqlashni bilish lozim. Sizga ishonib omonat qilib topshirilgan do'stini sirini borib boshqa bir insonga aytsangiz bilingki sizdan haqiqiy do'st chiqmaydi, aslida shu do'stlik rishtasi ham shunday bog'lanadi, biron bir inson sizga ishondimi aslo uni ishonchini yoqotmang, hayotda eng muhimi bu ishonchdir, ishonch yoqolsa uni qaytib tiklab bo'lmaydi, shuning uchun aytishsa kerak yuzta dosting bo'lmasin yuz yillik do'sting bo'lsin deb, hayotda bitta do'st bo'lsa yetarli siz ishonaoladigan u bilan umringiz oxirgacha birga cho'qillarni zabt etasiz siz unga u esa sizga yelkadosh bo'lsa. Siz yo'qligizda sizni himoya qilaoladigan bu sizning haqiqiy do'stingizdir. Do'stini biz tanlaymiz, vaqt esa uni bizga tanishtiradi. Do'st tanlashda aslo adashmang atrofingizdagi odamlar ham sizga qarab do'stingizga, do'stingizga qarab sizga baho beradi. Bilasizmi bu soxta dunyoda chin do'st topgan inson boydir aslida, ba'zida shunday kunlar kelarkan aka-ukalaring, opa-singillaringdanda yaqinroq bo'larkansan do'sting bilan.

**Shunday rivoyat eshitgan edim:**

Bir kuni moshinada ketayotib akaning yuragi huruj bo'lib qolibdi va kasalxonaga tushib qolibdi. Ona shifokordan og'linga nima bo'ldi deb so'rabdi, shifokorlar esa og'lingizni ahvoli og'ir darxol unga qon berish zarur debdi, bemorning akasi ukasiga qarab san beraqolgin sen mendan ancha kichiksan debdi, ukasi nima mani aybim kichkinaligimmi deb bermiyman o'zi qonim kam deb ikkalasi har tarafga ketishibdi, ona dod solib yeg'lab turgan payt bemorning do'sti kelib nega siqilasiz ona yeg'lamang ahir men bormanku do'simga men beraman qon debdi, bir qorindan talashib tushgan be mehr farzandlar bermagan qonni qiyomatli do'sti berdi.

Do'stim sen bor men hotirjam yuribman  
Yonimdasan doim be g'am turibman  
Sen nilan men davru davron suribman  
Xato qilsam mendan yuzing burman do'st  
Bemor bo'lma har on menga keraksan  
Yiqilsam gar chin ko'ngildan tirgaksan  
Jigarimdek goho ukam-akamsan  
XATO qilsam mendan yuzing burma do'st!

Ba'zida kuni- kuni kelganda jondan aziz ukalaringni ham senga foydasi tegmay qolarkan, osha paytda yoningda bir chin do'stga muhtoj bo'lasan, nafas oloyatgan ekanmiz bizga hayot yo'llarimizda yaqin qarindosh sifatida eng yaxshi do'st kerak bo'ladi, u nafaqat o'zining barcha ichki kechinmalari haqida gapirib berishni, balki sizni tinglashni, maslahat berishni ham xohlaydi. Sodiq do'st sizni hech qachon tanlov oldiga qo'ymaydi. Haqiqiy do'st sizni bilgan holda, har doim sizning kayfiyatingizni his qiladi. U hozir siz bilan hazillashish kerakmi yoki shunchaki sizni quchoqlab, indamay o'tirish yaxshiroqmi yaxshi biladi. Haqiqiy do'st har qanday vaziyatda hamisha sizni qo'llab quvvatlaydi va har qanday qaroringizni qabul qiladi. sodiq do'st har doim hech narsani yashirmasdan, shaxsan sizga haqiqatni aytadi. Chin do'st har doim siz bilan oxirgi nonigacha baham ko'radi haqiqiy do'st hech qachon sizga hasad qilmaydi, u har doim sizni eslaydi va hech qachon unutmaydi. Sodiq do'st har doim sizning manfaatlaringizni o'z manfaatlaringizdan ustun qo'yadi, har doim to'g'ri maslahatlar beradi, hatto sizga yoqmasa ham. Eng yaxshi do'st har doim farzandlaringizni o'z farzandidek ko'radi, oilangizni oilasi deb biladi. Aslida shu haqiqiy do'stlik rishtalari, sen haqingda hamma narsani biladigan, shu bilan birga seni yaxshi ko'radigan shaxs chin

do'stdir. Agar do'stlik savdo- sotiqqa o'xshab, ehtiyojga qarab axtarilsa, zarurat tug'ilmagan chog'da do'stni nazarga ilmay, tashlab ketilsa, bu qanday do'stlik bo'ldi endi!

Do'stlik qudratli kuch- Insonni do'sti bor ekan - uni doim kuchi bo'ladi, va qudrati ham. Agar do'stlik yaxshilik uchun qurilgan bo'lsa bu do'stlik qudratli kuchga aylanadi, agar yomon niyatda qurilgan do'stlik bo'lsa, buni aksi bo'ladi.

Ezgu xulq do'stlikni,

Yomon xulq dushmanlikni keltiradi.

Payg'ambarimiz Muhammad mustafo sallollohu alayhi vassalam hadislaridan birida: „Bir-biringizga hayr- ehsonli, mehr- muhabbatli bo'lib, qo'l berib so'rashib yuringlar, shunda dillaringizdagi g'illu g'amlik ketadi", deganlar.

Do'stlik insonning kuchiga kuch, qudratiga qudrat qo'shadigan, kishini baxtli qiladigan, hayotini bezaydigan eng muhim omillardandir

Do'stlik birodarlikning eng yaxshi hislatlaridan biri kishilarga mehr- shafqatli bo'lishni anglatadi. Do'stlik, o'rtoqlik rishtalari bog'lanishi va mustahkamlanishi ta'minlovchi birmuncha xislatlar bor. Jumladan, rostgoylik, bir-birini o'zaro hurmat qilish va sirdosh bo'lish, o'rtoqlarga doimo g'amxor bo'lish kabilarni o'z vaqtida amalga oshirib borsak, bizning o'rtoqligimiz ortib, haqiqiy do'stlik darajasiga ko'tarila oladi, shuning uchun ham do'stlik o'rtoqlikning oliy shaklidir, deb yuritiladi, chunki do'stlik avvalo o'rtoqlikdan boshlanadi. Do'stlik- oltindan qimmat, pul bilan o'lchab bo'lmaydigan bebaho narsa. Do'stlikni saqlash yer yuzidagi barcha xalqlarning, katta-yu kichik- hammaning hayotiy vazifasidir.

### **Xulosa**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, Bir insonning butun bir hayoti davomida do'stlikning qadriga yetishlik.do'st bo'lganda ham u oddiy bir do'st emasligi ya'ni chin dost ekanligi. Hayoti davomida har qanday vaziyatda yonida tura bilganligi unga ishonch hosil etganligi va bu ishonchni yo'qotmaganligi shu insonning eng katta baxti desam mubolag'a bo'lmaydi.Xulosa o'rnida shuni aytamanki bu foniyl dunyoda kim bilan do'st bo'lishdan qa'tiy nazar ONA kabi hech kim haqiqiy do'st bo'lolmaydi deb o'ylayman.Chunki qay vaziyat bo'lsa ham eng navbatda ona doimo yoningizda bo'ladi bu esa chin do'stdanda ziyot.Shunday ekan do'stlik bebaho va abadiy.Bu foniyl dunyodagi jamiki narsalarni vaqtida qadriga yetish kerak!

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev Shavkat. M “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz” , “O‘zbekiston” Toshkent 2017.
2. Erkin Umarov; Mahmud Abdullayev “Ma’naviyat asoslari” “Sharq” Toshkent 2005.
3. <https://kknews.uz/oz/126463.html>
4. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/olii-talim/Ta-limga-e-tibor-kelajakka-poydevor.htm>
5. [https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonda-nechta-olii-talim-muassasasi-faoliyat-yuritadi\\_567669](https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonda-nechta-olii-talim-muassasasi-faoliyat-yuritadi_567669)
6. <https://youtu.be/hEy2QqkTIDU?si=-zstZbU8WvRj0xs>
7. <https://parliament.gov.uz/articles/1350>
8. <https://lex.uz/docs/-4208152#-4211312>
9. [https://scholar.google.com/scholar?q=related:BJeGeOmGgdwJ:scholar.google.com/&hl=ru&as\\_sdt=0,5](https://scholar.google.com/scholar?q=related:BJeGeOmGgdwJ:scholar.google.com/&hl=ru&as_sdt=0,5)